

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI TOMONIDAN FIRIBGARLIK JINOYATINING MAXSUS PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA HUQUQIY JIHATLARI

Atajanov O'tkir Mamatsalayevich

Mustaqil tadqiqotchi

Urazxanova Dilbar Ruslanovna

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim

3-o'quv kursi 321-gurux kursanti.

Annotatsiya: Mazkur maqolada firibgarlik jinoyatining tarixiy evolyutsiyasi, uning qadimgi davrlardan to zamonaviy raqamli ko'rinishlargacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Xususan, global va milliy kiberjinoyatchilik statistikasi, jumladan, O'zbekistonda kuzatilayotgan bank kartalari bilan bog'liq firibgarliklar va soxta rahbar (fake boss) sxemalari o'rganilgan. Maqolada huquqbuzarliklar profilaktikasining maxsus profilaktika instituti doirasida inspektorlarning kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatlari, Kiberyordamchi platformasidan foydalanish hamda davlat organlari va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maxsus profilaktika, kiberfiribgarlik, fishing, ijtimoiy muhandislik, soxta profil, ransomware, Kiberyordamchi, tarixiy tahlil, statistika.

Annotation: This article analyzes the historical evolution of fraud crimes, examining their development stages from ancient times to modern digital manifestations. In particular, global and national cybercrime statistics are studied, with a specific focus on bank card fraud and "fake boss" schemes observed in Uzbekistan. The article develops proposals for strengthening cooperation between state bodies and the public, utilizing the "Kiberyordamchi" (Cyber-helper) platform, and outlining the powers of inspectors in the field of cybersecurity within the framework of the institute of special prevention of offenses.

Keywords: special prevention, cyber fraud, phishing, social engineering, fake profile, ransomware, Kiberyordamchi, historical analysis, statistics.

KIRISH

Firibgarlik – insoniyat tarixidagi eng qadimiy jinoyat turlaridan biri bo'lib, uning shakllari o'zgargani bilan, mohiyati o'zgarmasdan qolmoqda: bu – o'zgalar ishonchini suiiste'mol qilish orqali mulkiy manfaat ko'rishdir. Tarixga nazar solsak, miloddan avvalgi 300-yillarda yunon savdogari Hegestratosning kema sug'urtasi bilan bog'liq nayranglaridan tortib, XIX asrdagi "Ispan mahbusining maktubi" va XX asrdagi mashhur "Nigeriya shahzodasi" sxemalarigacha barchasi inson psixologiyasiga ta'sir o'tkazishga asoslangan.

Bugungi kunga kelib, texnologiyalar rivoji firibgarlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Endilikda jinoyatchilar jabrlanuvchi bilan yuzma-yuz ko'rishmasdan, Telegram orqali vazirlik va idora rahbarlari nomidan soxta profillar yaratib, xodimlarni aldashgacha

borishmoqda. Bunday sharoitda profilaktika inspektorlaridan an'anaviy ish uslubidan voz kechib, ilmiy asoslangan maxsus profilaktika choralarini qo'llash talab etiladi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda firibgarlik jinoyati o'zining an'anaviy chegaralaridan chiqib, transmilliy va raqamli xarakter kasb etayotgani global xavfsizlikka jiddiy tahdid solmoqda. Jahon miqyosidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, birgina 2022-yilning o'zida kiberjinoyatlar jahon iqtisodiyotiga qariyb 6 trillion AQSH dollari miqdorida zarar yetkazgan bo'lib, bu ko'rsatkichning yildan yilga ortib borishi prognoz qilinmoqda. Mazkur global tendensiya O'zbekiston Respublikasidagi kriminogen vaziyatga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, milliy segmentda kiberjinoyatchilikning dinamik o'sishi kuzatilmoqda.

Xususan, statistik tahlillarga ko'ra, 2023-yilda mamlakatimizda 5,5 mingga yaqin kiberjinoyat qayd etilgan bo'lib, ularning tarkibiy tuzilishi xavotirli manzarani namoyon etadi. Ushbu jinoyatlarning qariyb 70 foizi bevosita moliyaviy sektorga, ya'ni bank plastik kartalaridan pul mablag'larini o'g'irlash va firibgarlik holatlariga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birga, jinoyatchilik mexanizmlari texnologik jihatdan murakkablashib, Ransomware (shifrllovchi dasturlar), Phishing (soxta havolalar orqali ma'lumot o'g'irlash) va Malvertising (zararli reklama) kabi zamonaviy tahdidlar faollashmoqda.

Raqamli muhitda sodir etilayotgan firibgarlik holatlariga qarshi kurashishda cheklangan an'anaviy umumiy profilaktika (tushuntirish ishlari, oddiy suhbatlar) choralari endilikda kutilgan samarani bermayapti. Vujudga kelgan murakkab vaziyat profilaktika inspektorlari va sohaviy xizmatlardan kriminogen holatni chuqur tahlil qilgan holda, aniq maqsadli va texnologik yechimlarni o'z ichiga olgan maxsus profilaktik tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni qat'iy taqozo etmoqda.

Profilaktika inspektorlari tomonidan firibgarlik jinoyatlariga qarshi kurashish faoliyati mustahkam qonunchilik bazasiga tayanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni hamda 2022-yilda qabul qilingan "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun ushbu yo'nalishdagi ishlarning huquqiy poydevori hisoblanadi. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar inspektorlarga nafaqat jinoyat oqibatlari bilan kurashish, balki kiber-tahdidlarni erta aniqlash va bartaraf etish bo'yicha keng vakolatlarni beradi.

Maxsus profilaktika doirasida inspektorlar faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida bir qator tashkiliy-amaliy choralarni tizimli ravishda amalga oshirishlari lozim. Jumladan, inspektor o'z xizmat hududidagi aholining ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi va raqamli savodxonlik darajasini inobatga olgan holda, hududiy "Xavf xaritasi"ni yuritishi hamda eng ko'p tarqalgan firibgarlik sxemalari bo'yicha tahliliy monitoring olib borishi kerak. Bugungi kunda bunday xaritalarda "fake boss" (soxta rahbar), "onlayn qimor" va "soxta birja" kabi yo'nalishlar ustuvorlik kasb etmoqda.

Shu bilan birga, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi qonun talablaridan kelib chiqib, idoralararo hamkorlikni kuchaytirish, ya'ni inspektorlarning faqat o'z kuchlari bilan emas, balki tijorat banklari xodimlari, davlat tashkilotlarining IT-mutaxassisleri va

"Mahalla yettiligi" vakillari bilan integratsiyalashgan holda ishlashi shart hisoblanadi. Aynan ushbu hamkorlik mexanizmi shubhali moliyaviy operatsiyalarni vaqtida aniqlash va to'xtatib qolish imkonini beradi. Qolaversa, zamonaviy raqamli platformalardan, xususan, IIV tomonidan joriy etilgan "Kiberyordamchi" kabi maxsus tizim imkoniyatlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur platforma orqali inspektorlar aholiga real vaqt rejimida yangi paydo bo'lgan firibgarlik turlari va ulardan himoyalalanish usullari haqida tezkor xabarnomalar yetkazish hamda profilaktik ta'sirchanlikni oshirish imkoniga ega bo'ladi.

Ayni paytda firibgarlikning eng xavfli va keng tarqalgan turi – bu ijtimoiy muhandislik (social engineering) hisoblanadi. Xususan, so'nggi vaqtlarda "Soxta rahbar" (Fake boss) sxemasi keng tus olmoqda. Bunda firibgarlar Telegram messenjerida vazirlik yoki idora rahbarining rasmi va ism-sharifi tushirilgan soxta profil yaratib, qo'l ostidagi xodimga "hozir seni organ xodimlari so'rayapti, ularga barcha ma'lumotlarni ber" mazmunida bosim o'tkazadi. Bunday psixologik manipulyatsiya holatlarining oldini olish uchun ham inspektorlardan yuqorida ko'rsatilgan maxsus profilaktik yondashuvlar talab etiladi.

Xususan, "soxta rahbar" kabi ijtimoiy muhandislik usullariga qarshi maxsus profilaktika chorasi sifatida inspektorlar hududdagi korxona va tashkilotlarda "Rahbar hech qachon Telegram orqali moliyaviy topshiriq bermaydi" degan tushunchani shakllantirish bo'yicha maxsus o'quv-seminarlari o'tkazishi hamda "ikki bosqichli tekshiruv", ya'ni rahbarga qo'ng'iroq qilib aniqlashtirish qoidasini joriy etishi lozim. Bank kartalari bilan bog'liq firibgarliklarning oldini olishda esa banklar bilan hamkorlikda bankomatlar va to'lov terminallari oldida ogohlantiruvchi reydlar tashkil etish, ayniqsa, keksalar va moliyaviy savodxonligi past qatlam bilan manzilli ishlash talab etiladi.

Mazkur chora-tadbirlarning dolzarbligi Ichki ishlar vazirligi Tezkor-qidiruv departamenti Kiberxavfsizlik markazi ma'lumotlari bilan ham tasdiqlanadi. Unga ko'ra, bugungi kunda O'zbekistonda kiberjinoyatlarning 98 foizi aynan bank kartalari bilan bog'liq bo'lib, ularning aksariyati firibgarlik yoki o'g'rilik ko'rinishida sodir etilmoqda. Tahlillarga nazar solinsa, ushbu jinoyatlarning 60 foizi zararli havolalar va dasturlar orqali mobil qurilmalar yoki bank kartalari boshqaruvini egallash, 16 foizi SMS-kodlarni qo'lga kiritish orqali akkauntlarni boshqarish, 11 foizi onlayn savdo platformalaridagi firibgarliklar hamda 9 foizi turli moliyaviy aldov sxemalariga to'g'ri keladi. Internetdan foydalanish imkoniyatlari kengaygani sayin jinoyatchilik dinamikasi ham keskin o'sib, 2023-yilda kiberjinoyatlar umumiy jinoyatchilikning 6,2 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 44,4 foizga yetgani, ya'ni deyarli har ikkita jinoyatdan biri axborot texnologiyalari vositasida sodir etilgani vaziyatning naqadar jiddiy ekanligini ko'rsatadi.

Kriminologik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kiberjinoyatlarning o'sish tendensiyasi nafaqat texnologik xavflarning ortishi, balki subyektiv omillar – fuqarolarning raqamli makondagi e'tiborsizligi va huquqiy nigilizm bilan ham bevosita bog'liqdir. Tahlillar aksariyat holatlarda jabrlanuvchilarning shaxsiy va bank

ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga o'zlari taqdim etishi, ya'ni viktimologik xulq-atvor kiberjinoyatchilikning asosiy determinanti ekanligini tasdiqlamoqda. Shu bois, Kiberxavfsizlik markazi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida repressiv choralardan ko'ra, aholining huquqiy ongi va raqamli madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan preventiv choralar ustuvorlik kasb etmoqda.

Ushbu jarayonda maxsus profilaktikaning intensiv shakllari, xususan, poytaxt IIBB tomonidan iyul oyida sinovdan o'tkazilgan va 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan aholi qatlamlarini qamrab olgan "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi"ning ijobiy natijalari profilaktik ishni tashkil etishda differensial yondashuv samaradorligini isbotladi. Mazkur tajribaga tayangan holda, 2025-yilning 1–30-noyabr kunlari mamlakat miqyosida tashkil etilishi belgilangan "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi" shunchaki targ'ibot tadbiri emas, balki aholining turli demografik qatlamlarida raqamli immunitetni shakllantirish, fuqarolarni eng so'nggi firibgarlik bo'yicha tezkor ogohlantirish orqali axborot asimmetriyasini kamaytirish hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni kuchaytirishga qaratilgan kompleks tizimli mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Pirovardida, bunday keng qamrovli maxsus profilaktik tadbirlar kiberjinoyatchilikning latentligini kamaytirish va jamiyatda xavfsiz raqamli muhitni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining turli hududlarida o'tkazilgan "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi" doirasidagi monitoring natijalari kiberjinoyatchilikning umumiy jinoyatchilik tarkibida dominant mavqega chiqib borayotganini tasdiqlamoqda. Xususan, Navoiy viloyati misolida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2025-yilning o'tgan o'n oyi davomida sodir etilgan jami jinoyatlarning 40,2 foizi aynan kiberjinoyatlar hissasiga to'g'ri kelgan. Mazkur turdagi jinoyatlarning geolokatsiyasi ularning asosan urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda konsentratsiyalashganini namoyon etadi. Masalan, Navoiy viloyatidagi axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning 69,7 foizi Navoiy va Zarafshon shaharlari hamda Karmana va Xatirchi tumanlarida qayd etilganligi profilaktika inspektorlaridan shaharlar va tuman markazlarida maxsus profilaktik tadbirlarni kuchaytirishni talab etadi.

Muammoning iqtisodiy ko'lami naqadar kattaligini Qoraqalpog'iston Respublikasidagi vaziyat tahlili ham yaqqol isbotlaydi. Joriy yilning 10 oyi davomida hududda 2618 nafar fuqaroning kiberjinoyat qurboniga aylanishi va yetkazilgan moddiy zarar miqdorining 27 milliard so'mdan oshishi profilaktik choralarning dolzarbligini oshiradi. Hududiy tajribalar (Qoraqalpog'iston va Navoiy) asosida kiberfiribgarlik mexanizmlari o'rganilganda, eng yuqori ko'rsatkichni, ya'ni 36 foizni ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatiladigan zararli ".apk" fayllar va soxta ilovalar yordamida fuqarolarning qurilmalariga masofadan ulanish holatlari tashkil etayotgani aniqlandi. Shuningdek, jinoyatlarning salmoqli qismi, ya'ni 30 foizi moliyaviy va tovar firibgarligiga to'g'ri kelib, bu ko'rsatkich tovar va xizmatlar uchun oldindan to'lovlarni amalga oshirish hamda soxta treyderlar va investorlarga ishonib mablag' yo'qotish holatlari o'rtasida teng taqsimlangan.

Ijtimoiy muhandislik: "SIP-telefoniya" texnologiyalaridan foydalangan holda o'zini bank yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi sifatida tanishtirish, jabrlanuvchining ishonchiga kirib, uning telefoniga masofadan boshqarish dasturini o'rnatish va nomiga onlayn kredit rasmiylashtirish holatlari keskin oshgan.

Ushbu statistik ko'rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, kiberjinoyatlarning aksariyati (Navoiy viloyati IIB tahliliga ko'ra) jabrlanuvchilarning shaxsiy ehtiyotsizligi va raqamli gigiyena qoidalarini bilmasligi oqibatida yuzaga kelmoqda. Shu bois, "Kibermadaniyatni yuksaltirish oyligi" kabi maxsus tadbirlar doirasida profilaktika inspektorlari asosiy e'tiborni "APK" viruslaridan himoyalash, "soxta treyding" va "onlayn savdo" xatarlari bo'yicha manzilli targ'ibotga qaratishlari lozim.

Bugungi kunda kiberxavfsizlik — bu nafaqat texnik, balki ijtimoiy masala hamdir. Shu bois har bir fuqaro o'z shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish, noma'lum havolalarni ochmaslik va ishonchsiz manbalarga bank kartasi ma'lumotlarini kiritmaslik orqali nafaqat o'zini, balki jamiyatni ham muhofaza qilishi lozim.

XULOSA

Tarixiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, firibgarlik jinoyati Hegestratos davridan boshlab to bugungi "sun'iy intellekt" erasigacha bo'lgan davrda murakkab evolyutsion yo'lni bosib o'tgan. Ushbu jinoyat turining zamonaviy transformatsiyasi texnologik taraqqiyot, raqamli makondagi himoyasizlik hamda fuqarolarning haddan tashqari ishonuvchanligi kabi ob'ektiv va sub'ektiv omillar bilan izohlanadi.

Shu bois, profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshiriladigan maxsus profilaktika faoliyati inspektorlarning Phishing, Spoofing, DDoS kabi kiber-tahdidlarga qarshi kurash metodikasini mukammal o'zlashtirishi, "Kiberyordamchi" va boshqa innovatsion resurslar orqali aholida raqamli gigiyena madaniyatini shakllantirishi hamda firibgarlikning yangi turlari bo'yicha tezkor axborot almashinuvi – hududiy "signal" tizimini yo'lga qo'yishiga asoslanishi lozim.

Pirovardida, faqatgina zamonaviy bilimlar, chuqur tahliliy yondashuv va keng jamoatchilik nazorati integratsiyasiga asoslangan maxsus profilaktika tizimini takomillashtirish orqali kiberfiribgarlikning o'sib borayotgan to'loqini jilovlash va jamiyatda barqaror raqamli xavfsizlik muhitini ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni, 2022-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni.
3. Interpol va Europol xalqaro tashkilotlarining 2020-2023 yillardagi kiberjinoyatchilik bo'yicha hisobotlari.
4. O'zbekiston Respublikasi IIV Kiberxavfsizlik markazi ma'lumotlari.
5. "Firibgarlik tarixi va bugungi kunda uning rivojlanishi". Qalampir.uz tahliliy materiallari

6. 2022 йил 28 январда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони. (Мурожаат вақти: 29.11.2025й).

7. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич. "ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ЁШ АВЛОДНИ ТЕРРОРИЗМ ВА ЭКСТРЕМИЗМ ТАҲДИДЛАРИДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 134-140.

8. Атажанов, Ў. М. (2025). МАЪМУРИЙ НАЗОРАТ ОСТИДАГИ ШАХСЛАР БИЛАН ЯККА ТАРТИБДАГИ ПРОФИЛАКТИКАНИНГ ИЖТИМОИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ВА ЙЎНАЛИШЛАРИ. Научный Фокус, 3(30), 127-133.

9. Атажанов Ў. М. и др. МАЪМУРИЙ НАЗОРАТ ТИЗИМИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ ВА УНИНГ ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 119-126.

10. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич, and Ҳамидалиев Асадбек Жасур. "БОЗОРЛАР ҲУДУДИДА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ТИЗИМИНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАҲЛИЛИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 152-162.

11. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич. "ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ПРОФИЛАКТИКА ОБЪЕКТЛАРИ БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 184-190.

12. Атажанов Ў. М. и др. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ БОЗОР ОБЪЕКТЛАРИДАГИ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ //Научный Фокус. – 2025. – Т. 3. – №. 30. – С. 163-171.

13. Атажанов, Ўткир Маматсалаевич. "ҲАЁТГА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИНИНГ КРИМИНОЛОГИК САБАБЛАРИ ВА МАХСУС ПРОФИЛАКТИК ТАЪСИР ЙЎНАЛИШЛАРИ." Научный Фокус 3.30 (2025): 191-197.

14. Атажанов Ў. М. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАР //World scientific research journal. – 2023. – Т. 12. – №. 2. – С. 81-89.

15. Атажанов Ў. Шаҳар ҳудудида жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича профилактика инспектори фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишнинг бугунги ҳолати ва ўзига хос хусусиятлари //Актуальные вопросы обеспечения прав женщин и предотвращения насилия в семье в Узбекистане. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 24-30.

16. Майор А. Ў. М. ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ МАҲАЛЛА ФУҚАРОЛАР ЙИҒИНЛАРИДАГИ ҲИСОБОТ БЕРИШ ФАОЛИЯТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАҲЛИЛИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 11. – №. 6. – С. 117-121.

17. Атажанов, У. М. (2025). ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ВЗАИМОСВЯЗИ ЦИФРОВОЙ КРИМИНАЛИСТИКИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСПЕКТОРОВ

ПРОФИЛАКТИКИ ПО ОРГАНИЗАЦИИ И КООРДИНАЦИИ ПРОФИЛАКТИКИ ПРАВОНАРУШЕНИЙ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБЩЕСТВА. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 8(5), 127-135.

18. Ганиев Ф. Т., Давлетов Ф. О. У. РАБОТА ИНСПЕКТОРА ПРОФИЛАКТИКИ С БЕЗНАДЗОРНЫМИ И БЕСПРИЗОРНЫМИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ И ПРОБЕЛЫ НА ПРАКТИКЕ //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 16. – С. 179-182.

19. Адхамов, Зафар Акбарович. "ШАХСЛАРНИ ЗЎРАВОНЛИК ХУЛҚ-АТВОРИНИ ЎЗГАРТИРИШ БЎЙИЧА ТУЗАТИШ ДАСТУРИДАН ЎТКАЗИШДА ДИНИЙ УЛАМОЛАР БИЛАН ҲАМКОРЛИКНИНГ АҲАМИЯТЛИ ЖИҲАТЛАРИ." THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY 2.20 (2024): 114-117.

20. Адхамов, З. А. (2025). ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ НАЗОРАТ-ЛИЦЕНЗИЯ ҚОИДАЛАРИГА РИОЯ ЭТИЛИШНИ ТАЪМИНЛАШ ФАОЛИЯТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(2-2), 165-172.

21. Мустофақулов Б. А. Ў., Шодмонов Д. Э. Ў. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ПАТРУЛ-ПОСТ ХИЗМАТИ ВА ЖАМОАТ ТАРТИБИНИ САҚЛАШ БЎЛИНМАЛАРИ БИЛАН ЎЗАРО ҲАМКОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – №. 4. – С. 47-51.